

BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISH METODIKASI

Sharipova Sarvinoz Sayfiddinovna
Samarqand Davlat Chet tillari instituti o'qituvchi
Abdurazakhova Mashhura Utkir qizi
Samarqand Davlat Chet tillari instituti
Xorijiy til va adabiyoti fakulteti(ingliz tili) talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunga kelib chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Ushbu maqolada, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning til o'rganishiga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun chet tillarni o'qitishdagi zamonaviy va innovatsion metodlari haqida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinflar, zamonaviy innovatsion metodlar, aralash texnika, so'z o'yinlari.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Аннотация: Сегодня требование на изучение иностранных языков увеличивается с каждым днем. В данной статье основное внимание уделяется современным и инновационным методам преподавания иностранных языков для повышения интереса учащихся к изучению языка в начальных классах.

Ключевые слова: начальные классы, современные инновационные методы, смешанные методики, словесные игры;

METHODOLOGY OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN PRIMARY EDUCATION

Abstract: Today, the demand for learning foreign languages is increasing day by day. This article focuses on modern innovative methods of teaching foreign languages to increase students' interest in language learning in elementary grades.

Key words: primary classes, modern innovative methods, mixed techniques, word games;

Ma'lumki, mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ommalashtirishni va yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining “Xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” 2021-yil 19-maydagi 312-son qaroriga muvofiq, xorijiy tillarni o’qitish bo’yicha zarur bo’lgan adabiyotlar, asbob-uskunalar, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta’minlanishi belgilab qo’yildi. Ushbu qarorga muvofiq, chet tillarini ayniqsa, boshlang’ich sinfdan boshlab qiziqarli o’yinlar tarzda o’rgatish o’quvchining nutqini rivojlantirish, xorijiy tillarni bosqichma bosqich samarali o’qitish boshlandi. Chet til ta’limida sifat va samaradorlikni ta’minlash maqsadida chet tillarini o’rganish yoshini qisqartirish tajribasi ommalashib bormoqda.

Boshlang’ich sinflarda chet tillarni o’rgatishda, dastavval, og’zaki nutqini rivojlantirish uchun ustozlar tomonidan qiziqarli so’z o’yinlarini tashkillashtiriladi. Boshlang’ich sinf o’quvchilariga chet tillarini o’rgatishda grammatik tushunchalar berilmasligi kerak, chunki bu tufayli chet tilini o’rganayotgan yosh o’rganuvchida tilga bo’lgan qiziqishning pasayishi, zerikish holatlari kuzatiladi. Bugungi kunda, aynan, mana shu kabi zerikish holatlari kuzatilmaligi uchun, quyidagi innovatsion metodlardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo’ladi. O’yin tarzidagi darslar bolalarning og’zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Birinchi sinf o’quvchilari rasmi yoki videoli turli ko’rinishlarni juda yaxshi ko’rishadi. Turli xil rasmlar orqali, ularning nutqlarini o’stirishda o’yinlardan muntazam foydalanib turish lozim. Masalan, “Bu nima?”, “Bu kim?“, “Kim ko’p so’z biladi?” kabi o’yinlardan muntazam foydalanish mumkin. O’yin jarayonida bolalarning so’zlarni eslab qolishi, to’g’ri talaffuz etishiga rag’batlantirib borish zarur. Bolalarning so’z boyliklarini ortib borishiga qarab boshqa turdagi o’yinlar, turli xil musobaqalarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarga dastlab “Meva nomlari”, “Kasblar”, “Uy jihozlari” kabi mavzulardagi mashqlarni o’yinlar yordamida bajartirish mumkin. Shuningdek, boshlang’ich sinf o’quvchilariga chet tillarini o’rgatishda quyidagi metodlardan foydalanishi mumkin:

1. Qo’shiq yoki she’rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo’lgan so’zlarni kuyga solib aytish orqali o’rgatish; bunga misol qilib ingliz tili alifbosini, hafta kunlarini, sonlarni va boshqa narsalarni qo’shiq qilib o’rganishlari, shunchaki yodlashdan ko’ra ancha samarali ekanligi isbotlangan.

2. Multfilmlar yordamida o’rgatish; Bolalar til o’rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, ularni tushunishga harakat qiladi, shuningdek, unda ishlatilayotgan so’zlarni, gaplarni beixtiyor takrorlab ko’radi. Bu ham qiziqarli ham foydali metod hisoblanadi.

3. Aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog’liq bo’lgan o’yinlar; Bu turdagi o’yinlar orqali o’quvchilar diqqatini bir joyga jamlashiga, xorijiy tildagi so’zlarni yaxshi eslab qolishga yordam beradi.

4. Sezgi a’zolar orqali o’rganish; Masalan, sabzavot, mevalar, oziq-ovqatlarni topish orqali o’quvchilar so’zlarni yaxshi esda qoldirishadi.

5. Aralash texnika yordamida; bu usulda bolalar ixtiyoriy ravishda turli xil metodlarni birlashtira olish mumkin; Masalan, bunda o'quvchilar o'yin o'ynashi, qo'shiqlar aytishi, rasm chizishi turli xil harakatlarni bajarishi mumkin. Bu metodning afzalligi xilma xilligida, chunki til o'rganuvchilar zerikib qolishmaydi.

6. Mavzuga oid muhitni shakllantirish; O'qituvchi dars davomida mavzuga qarab o'quvchiga o'sha muhitni yaratib bersa, o'quvchilar tilni tezroq o'rganishadi. Masalan, hospital(shifoxona), school(maktab), travelling(sayohat) mavzular yordamida muhit shakllantirish, misol uchun o'quvchi shifoxonaga (hospital) bordi. O'qituvchi mana shu muhitni o'quvchiga yaratib bersa, bu hol o'quvchining nafaqat so'z boyligini balki, dunyoqarashini ham kengaytiradi.

Bilamizki, kichik til o'rganuvchilar bir xillikdan tez zerikadi, shuning uchun o'qituvchi doim bir xil usullardan foydalanib dars o'tmasdan, dars o'tish usullarini o'zgartirib borishi kerak. Usullarni o'zgartirib borish o'quvchilarning bu tilni o'rganishiga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab oshib borayotgan bir paytda, o'quvchilarga ularning yoshi, intilishiga va harakatiga qarab darslar qiziqarli metodlar yordamida olib borilishi, shuningdek, dars davomida olgan bilimlari kelajakda poydevor bo'lib xizmat qilishi uchun yosh til o'rganuvchilar bu tilga qiziqtirilishi lozim. Shunday ekan, yurtimiz o'z oldiga yetuk, erkin fikrlovchi shaxsni tarbiya qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ekan, biz kabi bo'lajak ustozlar mamlakatimizdagi imkoniyatlardan to'g'ri foydalangan holda barkamol avlod qilib yetishtirishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora- tadbirlari to'g'risida"gi 312-sonli qarori;
2. Tajibayeva G.Sh. "Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish"//2019
3. "Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tilni o'rgatishda nutq faoliyatining psixologik jihatlari" Xudoyqulova.G. S, Jasurova N.X, Tojimurodova S;
4. "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish metodikasi" Ahmedova M.// Conference on universal science research 2023//